

TA'LIM TIZIMIDA MULTIMEDIA ILOVALARINI ISHLAB CHIQUISH VA ULARDAN FOYDALANISH

Umarov Nuriddin Yusuf o'g'li
Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi
Maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola zamonaviy ta'lim tizimini axborotlashtirish va multimediali resurslarni qo'llash imkoniyatlariga bag'ishlangan. Maqolada ta'lim tizimida foydalaniladigan axborot texnologiyalari vositalari sanab o'tilgan va ixtisoslashtirilgan multimedia vositalarining roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, multimedia, multimediali texnologiyalar, ta'lim berishning multimediali vositalari, multimediali resurslar, multimediali resurslarning turlari.

KIRISH

Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalaridan keng foydalanish davrimizning dolzarb vazifalari qatoriga kiritilgan. Shu vazifalarni amalga oshirishda AKTga oid bilim va malakalar doirasini kengaytirish bilan birga, axborot resurslarini ham son jihatidan ko'paytirish, ham sifatini ko'tarish, ya'ni mazmunan boyitish muhim o'rin tutadi.

Ta'lim tizimida multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonida aniq predmetni kompyuter asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini tahrirlash, tinglovchilar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida ma'ruza matnlarini bayon etish uslubini yaxshilash, tinglovchilar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida yaratilgan animatsiya elementlarini mashg'ulot jarayonida ko'rish, eshitish va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari bilan ishlaydigan o'qituvchilar quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari kerak deb hisoblaymiz:

- ma'ruza matnlari, amaliyot bilan bog'liq topshiriqlarni tayyorlash;
- uslubiy ko'rsatmalar, nazorat savollari, to'g'ri javoblar variantini tuzish;
- ishchi dastur va texnologik xaritani tuzish;
- bilimni nazorat qilish natijasini tahlil qilish;
- har bir mavzu bo'yicha dinamik ko'rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tayyorlash;
- mustaqil ishlar bo'yicha tinglovchilarga nazariy va amaliy savollar yuzasidan maslahatlar berishni tashkil qilish;

● o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan mavzular bo‘yicha tinglovchilar bilan suhbat o‘tkazish kabi talablar qo‘yiladi.¹

Shakllantiriladigan ssenariylar bilan multimedia taqdimotlarida ularni boshqarish bo‘yicha foydalanuvchi imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. «ScenePro2» tizimi yordamida taqdimotga quyidagi funksional imkoniyatlar joriy etilmoqda:

- multimedia taqdimotining daraxt shaklidagi tuzilmasini shakllantirish;
- ssenariylarni shakllantirish – daraxtning har bir bosqichi uchun taqdimotning mazmuniy qism(modul)larini ko‘rsatish ketmaketligini tanlash;
- namoyish etish uchun tayyor ssenariylardan foydalanish;
- ovoz jo‘rliklarini alohida boshqarish.

Shakllantiriladigan ssenariylar bilan multimedia taqdimotlari o‘z ichiga interfaol va chiziqli multimedia ilovalari imkoniyatlarini birlashtirishi mumkin².

Multimedia qurilmalarining har xil turdagi apparatlar bilan birgalikda qo‘llanilishi shaxsiy kompyuterlarning har xil tipdagi axborotlarni qayta ishlash, saqlash, taqdim etish va uzatish imkoniyatlarini oshiradi. Axborotlarni qayta ishlashni maxsus kompyuter dasturlari orqali amalga oshirish kompyuterni turli tizimli vazifalar, amaliy topshiriqlarni hal etish, inson faoliyatini axborotlashtirish uchun yo‘naltirishga mo‘ljallangan.³

Multimedia texnologiyasi har xil turdagi axborotlarning mazmun va uyg‘unligi ta‘minlangan holda integratsiyalashuvini ta‘minlaydi. Bu kompyuter yordamida quyidagi turli shakldagi axborotlarni taqdim etish imkonini beradi:

- rasmlar, chizmalar, kartalar va slaydlardan nusxa olish orqali hosil qilingan tasvirlar;
- ovoz yozish, ovoz effektlari va musiqalar;
- video, murakkab videoeffektlar;
- animatsiyalar va animatsiyali imitatsiyalar.

Ta‘lim jarayoni uchun mo‘ljallangan va multimedia-texnologiyalaridan foydalanishda asos bo‘lgan elektron axborot-resurslarining keng tarqalgan turlariga quyidagilar kiradi:

- axborot-izlash va ma‘lumotlar jamlangan multimedia-tizimlari;
- amaliy multimedia-ensiklopediyalari;
- tinglovchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash multimedia-vositalari;
- elektron trenajyorlar;
- matematik va imitatsion modellashtirish uchun multimedia-vositalari;
- olisdagi va virtual laboratoriyalar multimedia-vositalari;

¹ Ibragimova S.B. «Multimedialiy pedagogik dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi». – T.: O‘zDJTI, 2020.

² Jumaev T.S. «Multimedia tizimlari va texnologiyalari» o‘quv metodik majmua. – T.: «Aloqachi», 2021. -16-18-b.

³ Ibragimova S.B. «Multimedialiy pedagogik dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi». – T.: O‘zDJTI, 2019.

- avtomatlashtirilgan ta'limiy tizimlar;
- elektron multimedia-darsliklari;
- ekspert ta'lim tizimlari;
- intellektual ta'lim tizimlari.⁴

Multimedia dasturlari orqali o'qitish o'quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamda tizimga keltirishga ko'maklashadi, ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkonini beradi.⁵

Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni uzatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rin olgan yangi muammolar, yechimlar, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilganlarga xulosa yasab, shuni ta'kidlash joizki, bir nechta sezgi (eshitish, ko'rish, jonli his etish) kanallari orqali ta'lim berish va ta'lim oluvchilarni multimedia vositalarini qo'llash orqali faol tinglovchiga aylantirish imkoniyati malaka oshiruvchilarda multimedia texnologiyalarining asosiy afzalliklari evaziga mashg'ulotlardan olingan yangicha bilim va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlashga, shuningdek, o'quv materialini o'zlashtirishda sifat va samaradorlikni oshirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibragimova S.B. Multimedialli pedagogik dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi». – T.: O'zDJTI, 2020.
2. Jumaev T.S. «Multimedia tizimlari va texnologiyalari» o'quv metodik majmua. – T.: «Aloqachi», 2021. -16-18-b.
3. Ibragimova S.B. Multimedialli pedagogik dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi. – T.: O'zDJTI, 2019.
4. Taylaqov U. N.. "Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash muammolari" *Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan)*, no. 6, 2019, pp. 59-63.
5. Xodjaeva Ziyada Karimbaevna, and Almuratov Zoir Otamuratovich. "Malaka oshirish tizimida multimedia ilovalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari" *Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan)*, no. 12, 2020, pp. 27-35.
6. www.mirfactor.ru
7. www.malaka.uz
8. www.edu.uz

⁴ Taylaqov U. N.. "Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash muammolari" *Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan)*, no. 6, 2019, pp. 59-63.

⁵ Xodjaeva Ziyada Karimbaevna, and Almuratov Zoir Otamuratovich. "Malaka oshirish tizimida multimedia ilovalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari" *Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan)*, no. 12, 2020, pp. 27-35.